



Xalq so'zi

O'zbekiston —
kelajagi
buyuk
davlat

2026-YIL – MAHALLANI RIVOJLANTIRISH VA JAMIYATNI YUKSALTIRISH YILI

1991-yil 1-yanvardan chiqa boshlagan

WWW.XS.UZ

E-mail: Info@xs.uz

2026-yil 17-iyun, № 122 (9293)

Chorshanba

Saytimizga o'tish uchun QR-kodini telefoningiz orqali skaner qiling.



TOSHKENT XALQARO INVESTITSIYA FORUMI DOIRASIDAGI SAMARALI MULOQOTLAR

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev beshinchi Toshkent xalqaro investitsiya forumida ishtirok etish uchun mamlakatimizga kelgan Rossiya Federatsiyasi Hukumati Raisi Mixail Mishustin, Qirg'iz Respublikasi Vazirlar Mahkamasi Raisi – Prezident Administratsiyasi rahbari Adilbek Kasimiyev, Tojikiston Respublikasi Bosh vaziri Qohir Rasulzoda, Ozarbayjon Respublikasi Bosh vaziri Ali Asadov va Belarus Respublikasi Bosh vaziri Aleksandr Turchinni qabul qildi.



Rossiya Federatsiyasi Hukumati Raisi Mixail Mishustin uchrashuv avvalida davlatimiz rahbariga Rossiya Federatsiyasi Prezidenti Vladimir Putinning samimiy salomi va eng ezgu tilaklarini yetkazdi.

O'zbekiston – Rossiya strategik sheriklik va ittifoqchilik munosabatlari oliy darajada erishilgan kelishuvlarni amalga oshirish doirasida yanada rivojlantirish masalalari ko'rib chiqildi.

Tovar ayirboshlash barqaror o'sib borayotgani mamnuniyat bilan qayd etildi. Joriy yil boshidan buyon uning hajmi 20 foizga oshdi. Energetika, metallurgiya va iqtisodiyotning boshqa ustuvor

tarmoqlarida yirik loyihalarni amalga oshirish davom etmoqda.

Savdo-iqtisodiy hamkorlikning rivojlanish sur'atini saqlab qolishga qaratilgan kompleks chora-tadbirlarni qabul qilish hamda sanoat kooperatsiyasi loyihalarini qo'llab-quvvatlash masalalariga alohida e'tibor qaratildi.


O'zbekiston yetakchisi hududlar darajasidagi amaliy hamkorlikni yanada kengaytirish hamda madaniy va ta'lim almashinuvi dasturlarini ilgari surish muhimligini ta'kidladi.

Qirg'iz Respublikasi Vazirlar Mahkamasi Raisi – Prezident Administratsiyasi rahbari Adilbek

Kasimiyev uchrashuv avvalida davlatimiz rahbariga Qirg'iz Respublikasi Prezidenti Sadi Japarovning samimiy salomi va ezgu tilaklarini yetkazdi.

Ikki mamlakat yetakchilari o'rtasida savdo-iqtisodiyot, transport, suv-energetika sohalarida erishilgan kelishuvlarni amalga oshirish, shuningdek, madaniy-gumanitar dasturlar va hududlararo almashinuvi ilgari surishga alohida e'tibor qaratildi.

O'zaro hamkorlik va bo'lajak oliy darajadagi tadbirlar kun tartibini boyitish maqsadida Hukumatlararo komissiya va Ishbilarmonlar kengashining navbatdagi yig'ilishlari davomida



hamda boshqa sheriklik mexanizmlari doirasida yangi loyiha va tashabbuslarni ishlab chiqish muhimligi alohida ta'kidlandi.

Tojikiston Respublikasi Bosh vaziri Qohir Rasulzoda uchrashuv avvalida davlatimiz rahbariga Tojikiston Respublikasi Prezidenti Emomali Rahmonning samimiy salomi va eng ezgu tilaklarini yetkazdi.

O'zbekiston – Tojikiston do'stlik, yaxshi qo'shnichilik va ittifoqchilik munosabatlari oliy darajada erishilgan kelishuvlarni amalga oshirish doirasida yanada mustahkamlashning dolzarb masalalari ko'rib chiqildi.

Ikki tomonlama sheriklikning barcha yo'nalishlaridagi yuqori sur'at mamnuniyat bilan qayd etildi. Tovar ayirboshlash hajmi o'sib bormoqda, energetika, sanoat, qishloq va suv xo'jaligi sohalaridagi kooperatsiya loyihalarini faol bosqichda.

Yangi tashabbuslarni, jumladan, hududlararo va madaniy-gumanitar almashinuvlar doirasida ishlab chiqish muhimligi ta'kidlandi.

(Davomi 2-betda).

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti
Matbuot xizmati suratlari.

O'ZBEKISTON VA ALBANIYA ALOQALARIDA YANGI DAVR BOSHLANMOQDA

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning taklifiga binoan Albaniya Respublikasi Prezidenti Bayram Begay rafiqasi hamrohligida rasmiy tashrif bilan mamlakatimizda bo'lib turibdi.

Zamonaviy dunyoda davlatlararo munosabatlarning muvaffaqiyati xaritada masofalarga bog'liq bo'lmay qoldi. Bugun do'stona aloqalar siyosiy iroda va o'zaro manfaatlar uyg'unligi bilan belgilanmoqda.

O'zbekistonning yangicha, ochiq va pragmatik tashqi siyosiy strategiyasi uzoq va yaqin hamkorlar bilan teng huquqli hamda do'stona aloqalarni izchil mustahkamlashga xizmat qilyapti. Albaniya Respublikasi bilan munosabatlarning sifat jihatdan yangi bosqichga ko'tarilishi bu fikrning yaqqol isbotidir.

Ikki davlat o'rtasida faollashayotgan oliy darajadagi siyosiy muloqot nafaqat diplomatik aloqalarni kengaytirish, balki iqtisodiy va investitsiyaviy sohalardagi ulkan salohiyatni ro'yobga chiqarish

uchun yangi imkoniyatlar eshigini ochmoqda.

O'zbekiston va Albaniya o'rtasidagi diplomatik munosabatlar tarixi 1993-yilga borib taqaladi. Lekin so'nggi yillarda ushbu aloqalar butunlay yangi mazmun va sur'at kasb etdi. 2025-yil 23-sentabr kuni Nyu-York shahrida BMT Bosh Assambleyasining 80-yubiley sessiyasi doirasida O'zbekiston Prezidentining Albaniya Prezidenti Bayram Begay bilan o'tkazgan muzokaralari ikki tomonlama munosabatlar rivojida muhim bosqich bo'ldi.

O'z navbatida, agrosanoat majmui, "yashil" energetika, geologiya, axborot texnologiyalari va raqamlashtirish sohasidagi kooperatsiya dasturlari har ikki tomon uchun ish o'rinlari va ishlab chiqarish quvvatlarini yaratadi.

Siyosiy doiralardagi yuqori ishonch va madaniy-gumanitar sohadagi almashinuvlar xalqlarimizni yanada yaqinlashtirishi shubhasizdir. O'zbekiston va Albaniya o'rtasidagi ko'p qirrali munosabatlarning bugungi holati, shubhasiz, yangi bosqichga ko'tarildi.

Ko'ksaroy qarorgohida 16-iyun kuni Albaniya Respublikasi Prezidenti Bayram Begayni rasmiy kutib olish marosimi bo'ldi.

Qarorgoh oldidagi maydonda faxriy qorovul saf tortdi. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev oliy martabali mehmonni samimiy kutib olib, shohsupaga taklif qildi.

Harbiy orkestr ijrosida O'zbekiston va Albaniya davlat madhiyalari yangradi. Yetakchilar faxriy qorovul safi oldidan o'tib, rasmiy delegatsiyalar a'zolarini qutladilar. Shundan so'ng Ko'ksaroy

qarorgohida O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev va Albaniya Respublikasi Prezidenti Bayram Begay rasmiy delegatsiyalar ishtirokida muzokara o'tkazdilar.

Ikki davlat o'rtasida amaliy hamkorlikni yanada mustahkamlash istiqbollari ko'rib chiqildi.

Uchrashuv avvalida davlatimiz rahbari O'zbekiston va Albaniya munosabatlari tarixida ilk bor o'tkazilayotgan ushbu sammit alohida ahamiyatga ega ekanini, uning ikki tomonlama hamkorlikni sifat jihatdan yangi bosqichga olib chiqishini qayd etdi.

Siyosiy muloqot va turli darajadagi aloqalar faollashgani mamnuniyat bilan qayd etildi. BMT va boshqa xalqaro tuzilmalar doirasida tomonlar bir-birini qo'llab-quvvatlab kelmoqda.

(Davomi 2-betda).



O'ZBEKISTON – AQSH: INVESTITSIYAVIY HAMKORLIK YO'NALISHLARI BELGILAB OLINDI

Toshkent xalqaro investitsiya forumi tadbirlari doirasida O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev AQSH Eksimbanki prezidenti va raisi Jon Yovanovich hamda Xalqaro moliyaviy taraqqiyot korporatsiyasi (DFC) bosh ijrochi direktori Ben Blek bilan uchrashuv o'tkazdi.

Uchrashuv avvalida yuqori martabali mehmonlar davlatimiz rahbariga AQSH Prezidenti Donald Trampning samimiy salomi va ezgu tilaklarini yetkazdi.

Muzokaralar davomida mazkur institutlar O'zbekistonda infratuzilmani rivojlantirish, muhim mineralarni o'zlashtirish, energetika, sun'iy intellektni joriy etish hamda raqamlashtirish kabi yuqori texnologiyali strategik loyihalarni moliyalashtirishda ishtirok etishi bilan bog'liq masalalar atroflicha ko'rib chiqildi.

AQSH Eksimbanki bilan hamkorlik yo'nalishida energetika tarmog'ini modernizatsiya qilish bo'yicha qo'shma loyihalarni jadallashtirish yuzasidan kelishuvga erishildi. Mahalliy tadbirkorlarning ustuvor sohalardagi tashabbuslari uchun eksport kreditlarini taqdim etishni yanada rivojlantirishga alohida e'tibor qaratildi.

"DFC" korporatsiyasining sog'liqni saqlash sohasidagi loyihalarni qo'llab-quvvatlash, energetika tarmog'i va infratuzilmani modernizatsiya qilishga qaratilgan qo'shma investitsiya platformasini ishga tushirish bo'yicha tashabbuslari qo'llab-quvvatlandi.

Toshkentda yangi xalqaro aeroportni qurish, Farg'ona viloyatida zamonaviy tibbiyot majmuasini tashkil etish, raqamli bankni ishga tushirish, data-markazlar va quruq portlarni barpo qilish kabi yirik infratuzilma loyihalarini amalga oshirishning amaliy bosqichiga o'tish zarurligi ta'kidlandi.

Uchrashuv yakunida muhokama qilingan

investitsiyaviy va texnologik loyihalarni ilgari surish bo'yicha qo'shma "Yo'l xaritasi"ni qabul qilishga kelishib olindi.

Shundan so'ng O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev AQSHning yetakchi kompaniyalari delegatsiyasi bilan ham uchrashdi.

Uchrashuvda AQSH Eksimbanki prezidenti va raisi Jon Yovanovich, Xalqaro moliyaviy taraqqiyot korporatsiyasi (DFC) bosh ijrochi direktori Ben Blek, AQSH – O'zbekiston savdo palatasi raisi Kerolin Lemm hamda "Air Products", "Cove Capital", "Templeton Global Investments", "Boeing", "77 Construction", "BlackRock", "FLS", "Visa", "JP Morgan", "Meta", "GULF" korporatsiyalari rahbarlari va yana bir qator kompaniyalar vakillari ishtirok etdi.

Davlatimiz rahbari mazkur uchrashuv oxirgi yillarda vujudga kelgan yaxshi an'ananing davomi, AQSH ishlabchilarning O'zbekistondagi faoliyatini kengaytirishga qiziqishi ortib borayotganining tasdiqi ekanini mamnuniyat bilan qayd etdi.

Iqtisodiy hamkorlik O'zbekiston bilan AQSH o'rtasidagi strategik sheriklikning asosiy tayananch nuqtalaridan biri ekani alohida ta'kidlandi.

Mamlakatimiz yetakchisi ikki davlat o'rtasidagi savdo-iqtisodiy hamkorlikni yanada rivojlantirishga qaratilgan bir qator dolzarb yo'nalishlarni belgilab berdi.

(Davomi 2-betda).



O'ZBEKISTON PREZIDENTI MALAYZIYA BOSH VAZIRI BILAN UCHRASHUV O'TKAZDI

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev poytaxtimizda to'xtab o'tgan Malayziya Bosh vaziri Anvar Ibrohim bilan uchrashuv o'tkazdi.

Samimiy muloqotda ikki tomonlama munosabatlarni rivojlantirish, ularni amaliy mazmun bilan boyitish masalalari atroflicha muhokama qilindi.

Oliy darajadagi o'zaro tashriflar natijasida mamlakatlarimiz hamkorligi mutlaqo yangi bosqichga ko'tarildi. Xususan, yil boshidan buyon tovar ayirboshlash hajmi 15 foizga o'sdi, qo'shma korxonalar soni esa 50 taga yetdi. Turli darajalarda faol muloqotlar davom etmoqda.

Davlatimiz rahbari ayni kunlarda O'zbekistonda

bo'lib turgan Malayziyaning "Petronas" korporatsiyasi delegatsiyasi bilan muzokaralarning ahamiyatiga to'xtalib, iqtisodiyotning turli tarmoqlarida strategik loyihalarni amalga oshirishni jadallashtirish zarurligini qayd etdi.

Jumladan, neft-kimyo, yuqori texnologiyalar, qishloq xo'jaligi, mashinasozlik, farmatsevtika va boshqa ustuvor sohalardagi loyihalarni ilgari surishga e'tibor qaratildi.

Muloqot davomida islom moliyasi, hududlararo aloqalar,

ziyosat turizmi, to'g'ridan-to'g'ri aviaqatnovlar sonini oshirish hamda madaniy almashinuvlar yo'nalishlaridagi hamkorlik istiqbollari ham to'xtalib o'tildi.

Xalqaro va mintaqaviy kun tartibi yuzasidan ham fikr almashildi.

Uchrashuv yakunida O'zbekiston Prezidenti Shavkat Mirziyoyev Malayziya Bosh vaziri Anvar Ibrohimni O'zbekistonga alohida tashrif bilan kelishiga taklif qildi.

O'ZA.

ISLOHOTLARNING HUQUQIY ASOSLARINI MUSTAHKAMLASH — USTUVOR VAZIFA

Oliy Majlis Qonunchilik palatasining navbatdagi majlisi boʻlib oʻtdi. Unda harbiy xizmatchilarning maqomi va ularni ijtimoiy himoya qilishga, odil sudlovni amalga oshirishga, isteʼmolchilar huquqlari himoyasini yanada kuchaytirishga, Suv kodeksi hamda Maʼmuriy javobgarlik toʻgʻrisidagi kodeksga oʻzgartirishlar kiritishga qaratilgan qonun loyihalari hamda parlament nazoratiga doir qator masalalar koʻrib chiqildi. Ushbu qonun loyihasi siyosiy partiyalar fraksiyalarida, masʼul qoʻmitalar, ishchi guruh yigʻinlarida ekspertlar, tegishli vazirlik hamda idoralar mutaxassislari ishtirokida atroflicha muhokama qilangani qayd etildi.

Harbiy xizmatchilarning maqomi toʻgʻrisidagi qonun loyihasi qabul qilindi

Majlisda dastlab “Harbiy xizmatchilarning maqomi va ularni ijtimoiy himoya qilish toʻgʻrisida”gi qonun loyihasi ikkinchi oʻqishda koʻrib chiqildi.

Taʼkidlanganidek, keyingi yillarda harbiy xizmatchilar va ularning oila aʼzolarini ijtimoiy himoya qilish, munosib xizmat va yashash sharoitlarini yaratish, ularning huquq va qonuniy manfaatlarini kafolatlash borasida keng koʻlamli ishlar amalga oshirilmoqda.

Mazkur qonun loyihasi ham ana shu islohotlarning mantiqiy davomi boʻlib, harbiy xizmatchilarning huquqiy maqomini belgilash, ularning huquqlari, erkinliklari, majburiyatlari va javobgarligiga oid munosabatlarni, shuningdek, harbiy xizmatchilar, harbiy xizmatdan boʻshatilgan fuqarolar va ularning oila aʼzolarini huquqiy hamda ijtimoiy himoya qilish masalalarini yagona qonun darajasida tartibga solishni nazarda tutadi.

Qonun loyihasida harbiy xizmatchilar va ularning oila aʼzolarini ijtimoiy qoʻllab-quvvatlashga qaratilgan muhim kafolatlar nazarda tutilmoqda. Xususan, harbiy xizmatchilarni moddiy taʼminlash, ularga sifatli tibbiy xizmat koʻrsatish, uy-joyga ega boʻlish, majburiy davlat sugʻurtasi va pensiya taʼminoti, shuningdek, xizmat vazifasini bajarish chogʻida jarohat olgan yoki halok boʻlgan taqdirda kompensatsiya toʻlovlarini amalga oshirish kabi mexanizmlar qonun darajasida mustahkamlanmoqda.

Majlisda mazkur qonun loyihasi birinchi oʻqishda qabul qilinganidan soʻng Xalqaro ishlar, mudofaa va xavfsizlik masalalari qoʻmitasi tomonidan uni ikkinchi oʻqishga tayyorlash yuzasidan muayyan ishlar amalga oshirilgani qayd etildi. Qonun loyihasini takomillashtirish jarayonida deputatlar tomonidan bildirilgan fikr-mulohazalar va takliflar, sohaga oid qonunchilik hujjatlari hamda huquqni qoʻllash amaliyoti natijalari atroflicha oʻrganilgani urgʻulandi.

Sherzod QULMATOV, masʼul qoʻmita aʼzosi:

– Birinchi oʻqishda deputatlar tomonidan harbiy xizmatchilarning huquqiy maqomini belgilashga oid ayrim normalarni aniqlashtirish, ijtimoiy kafolatlarni kuchaytirish, huquq va majburiyatlarning mazmunini yanada ravshan ifodalash, qonun normalarini amaliyotda qoʻllashda yuzaga kelishi mumkin boʻlgan turlicha talqinlarni bartaraf etish hamda qonunning toʻgʻridan-toʻgʻri amal qilish mexanizmlarini yaxshilashga qaratilgan takliflar bildirilgan edi. Mazkur takliflar qoʻmita va ishchi guruh yigʻinlarida har tomonlama muhokamadan oʻtkazilib, ularning aksariyati qonun loyihasini takomillashtirish jarayonida inobatga olindi. Natijada loyihaning qator normalari tahriri va yuridik-texnik jihatdan qayta ishlandi. Ayrim qoidalarining mazmuni aniqlashtirilib, huquqni qoʻllash amaliyoti uchun qulay boʻlgan huquqiy mexanizmlar shakllantirildi. Shuningdek, loyihadagi normalarning oʻzaro muvofiqligini taʼminlash, huquqiy boʻshliqlar va turlicha talqin qilinishi mumkin boʻlgan holatlarni bartaraf etish, qonunning huquqni qoʻllash amaliyotidagi samaradorligini oshirish maqsadida qoʻshimcha tahrirlar kiritildi.

Muhokama jarayonida aytilganidek, qonun loyihasining qabul qilinishi harbiy xizmatchilarning huquqiy maqomini belgilashda yagona huquqiy yondashuvni shakllantirish, ularning huquq va qonuniy manfaatlarini ishonchli himoyalash, ijtimoiy kafolatlarni mustahkamlash hamda harbiy xizmat nufuzini yanada oshirishga keng yoʻl ochadi.

Qonun loyihasi deputatlar tomonidan qabul qilindi va Senatga yuborildi.

Himoyachiga “himoya fikri”ni taqdim etish huquqi berilmoqda

“Oʻzbekiston Respublikasining ayrim qonun hujjatlariga qoʻshimcha va oʻzgartirishlar kiritish toʻgʻrisida”gi qonun loyihasi birinchi oʻqishda koʻrib chiqildi.

Ushbu qonun loyihasi sud-huquq tizimida tomonlarning tortishuvi va teng huquqliligi prinsipini yanada kuchaytirish, advokatlarning protsessual imkoniyatlarini kengaytirishga qaratilgan.

Loyiha bilan Jinoyat-prosessual kodeksi hamda “Advokatura toʻgʻrisida”gi Qonunga tegishli oʻzgartirish va qoʻshimchalar kiritish nazarda tutilmoqda.

Loyihaga koʻra, jinoyat ishi sudga faqat ayblov xulosasi yoki ayblov dalolatnomasi bilan emas, balki himoyachining fikri bilan birga kiritilishi belgilanyapti. Shuningdek, himoyachiga dastlabki tergov yoki surishtiruv yakunlanganidan keyin besh sutka ichida “himoya fikri”ni taqdim etish huquqi berilishi belgilanmoqda.

Kiritilayotgan oʻzgartirish va qoʻshimchalar sud muhokamalarida tenglikni taʼminlash, sudyaning ish boʻyicha har ikki tomon fikri bilan oldindan tanishishiga imkoniyat yaratish hamda odil sudlov sifatini oshirishga hissa qoʻshadi. Mazkur qonun loyihasi qabul qilinishi bilan sud jarayonlarida tortishuv prinsipi mustahkamlanadi, advokatning roli va taʼsiri ortadi.

Majlisda qonun loyihasi deputatlar tomonidan birinchi oʻqishda qabul qilindi.

Yaroqlilik muddati oʻtgan tovarlarni sotishga qarshi choralar kuchaytirilmoqda

Deputatlar yaroqlilik muddati oʻtgan va bu muddat koʻrsatilmagan holda tovarlarni realizatsiya qilish hamda sotishning oldini olishga qaratilgan qonun loyihasini birinchi oʻqishda koʻrib chiqdi.

Taʼkidlanganidek, amalda yaroqlilik muddati oʻtgan, ishlab chiqarilgan sanasi va yaroqlilik muddati koʻrsatilishi shartligi belgilangan tovarlarni ularning ishlab chiqarilgan sanasi va yaroqlilik muddatini koʻrsatmagan holda realizatsiyasi bilan shugʻullanish va sotishga qabul qilganlik uchun javobgarlik belgilangan. Biroq qaynaga qaramay bugungi kunda ayrim savdo doʻkonlarida bu tartib-qoidalariga amal qilmamasligi natijasida inson salomatligiga taʼsir etuvchi holatlar oshib bormoqda.

Bu esa isteʼmol bozorida xavfsizlikni taʼminlashni, aholi salomatligiga xavf tugʻdiruvchi holatlarning oldini olishni, tadbirkorlik subyektlarining masʼuliyatini yanada oshirish va huquqbuzarliklarning oldini olishga qaratilgan preventiv choralarini kuchaytirishni taqozo etmoqda.

Qonun loyihasi bilan Maʼmuriy javobgarlik toʻgʻrisidagi kodeksning 178-moddasiga tegishli oʻzgartirishlar kiritilmoqda. Xususan, yaroqlilik muddati oʻtgan, shuningdek, ishlab chiqarilgan sanasi va yaroqlilik muddati koʻrsatilishi shartligi belgilangan oziq-ovqat mahsulotlarining ishlab chiqarilgan sanasi va yaroqlilik muddati koʻrsatilmagan holda realizatsiyasi bilan shugʻullanish va sotish maqsadida qabul qilganlik uchun maʼmuriy huquqbuzarlik boʻyicha jarimalar miqdorini oshirish nazarda tutilyapti. Hujjatning asosiy maqsadi aholi salomatligi va hayotini mustahkamlashdan iborat.

Muhokama davomida deputatlar qonun loyihasining ahamiyati, ayni chogʻda zarurati eʼtiborga olib, undagi ayrim normalar boʻyicha qonun tashabbuskorlariga aniqlashtiruvchi savollar berdi. Xususan, 178-moddaning yettinchi qismida yaroqlilik muddati oʻtgan yoki muddati koʻrsatilishi shart boʻlgan holatlar boʻyicha qoidalar buzilgan holatda javobgarlik kuchaytirilayotgani, biroq ushbu moddaning oltinchi qismida xuddi shu masala uchun javobgarlikni kuchaytirish nazarda tutilmayotgani bilan bogʻliq masalalar koʻtarildi.

Savol-javoblardan soʻng qonun loyihasi birinchi oʻqishda qabul qilindi.

Suv xoʻjaligida raqamli boshqaruv tizimi kengaymoqda

Majlisda “Oʻzbekiston Respublikasining Suv kodeksiga oʻzgartirishlar kiritish toʻgʻrisida”gi qonun loyihasi birinchi oʻqishda obdan muhokama qilindi.

Keyingi yillarda yurtimizda suv resurslaridan oqilona va samarali foydalanish, ularning hisobini yuritish hamda monitoringini takomillashtirish boʻyicha keng koʻlamli ishlar amalga oshirilmoqda. Ayniqsa, sohani raqamlashtirish, zamonaviy boshqaruv mexanizmlarini joriy etish va xususiy sektor ishtirokini kengaytirishga alohida eʼtibor qaratilmoqda.

Muhokama qilingan qonun loyihasi ham mazkur islohotlarning mantiqiy davomi boʻlib, suv xoʻjaligi yoʻnalishidagi mavjud munosabatlarni yanada takomillashtirishga qaratilgan. Xususan, loyihada suvdan foydalanish toʻgʻrisidagi shartnomalarni maxsus axborot tizimi orqali avtomatlashtirilgan tarzda elektron shaklda roʻyxatdan oʻtkazish tartibini joriy etish nazarda tutilmoqda. Deputatlar fikricha, mazkur yangilik inson omilini kamaytirish, ortiqcha byurokratik jarayonlarni qisqartirish hamda davlat xizmatlari samaradorligini oshirishga xizmat qiladi.

Muhokama davomida deputatlar suv resurslari iqtisodiy taraqqiyot, ekologik barqarorlik va aholi farovonligini taʼminlashda muhim oʻrin tutishini taʼkidladi. Shu bois mazkur sohada zamonaviy boshqaruv usullarini keng joriy etish, raqamli texnologiyalardan samarali foydalanish va xususiy sektor imkoniyatlarini jalb qilish bugungi kunning dolzarb vazifalaridan biri ekanini qayd etildi.

Majlisda qonun loyihasi yuzasidan qator aniqlashtiruvchi savollar koʻtarildi, tegishli taklif va tavsiyalar berildi.

Munozaralardan soʻng qonun loyihasi birinchi oʻqishda qabul qilindi.

Obihayotni muhofaza qilishda masʼullik

Bir guruh deputatlar tomonidan qonunchilik tashabbusi huquqi asosida kiritilgan – “Oʻzbekiston Respublikasining Maʼmuriy javobgarlik toʻgʻrisidagi kodeksiga oʻzgartirish va qoʻshimchalar kiritish haqida”gi qonun loyihasi birinchi oʻqishda koʻrib chiqildi.

Taʼkidlanganidek, sohadagi munosabatlarni tartibga solish, suvlarning davlat hisobini yuritish talablariga rioya etilishini taʼminlash, suv xoʻjaligi obyektlari va quрилmalaridan foydalanish masʼuliyatini kuchaytirish bugun juda muhim.

Ushbu qonun loyihasi bilan Maʼmuriy javobgarlik toʻgʻrisidagi kodeksning tegishli moddalariga oʻzgartirish va qoʻshimchalar kiritish taklif etilmoqda. Xususan, suvlarning davlat hisobini yuritish, suv xoʻjaligi obyektlari va gidrotexnika inshootlaridan foydalanish qoidalarini buzganlik uchun javobgarlikni bevosita masʼul shaxslarga nisbatan qoʻllash nazarda tutilyapti. Shuningdek, huquqbuzarlik mansabdor shaxs tomonidan sodir qilingan holatlarda nisbatan qatʼiyrqo javobgarlik choralarini belgilash hamda takroran sodir etilgan huquqbuzarliklar uchun jarimalar miqdorini oshirish taklif qilimoqda.

Maxsud MUHAMMEDOV, Agrar va suv xoʻjaligi masalalari qoʻmitasi aʼzosi:

– Atrof-muhitni muhofaza qilish va aholi salomatligini asrash maqsadida oqova suvlarni chiqarish tarmoqlaridan foydalanish qoidalarini buzganlik uchun javobgarlik choralarini takomillashtirishga qaratilgan normalar ham loyihadan oʻrin olgan. Chunki fuqarolar salomatligini asrash bugungi kunda dolzarb masala. Shu nuqtayi nazaridan aytish mumkinki, mazkur qonun loyihasi suv resurslaridan samarali foydalanishni taʼminlash, sohada huquqbuzarliklarning oldini olish hamda obihayotni muhofaza etish tizimini yanada kuchaytirishga xizmat qiladi.

Qonun loyihasi deputatlar tomonidan birinchi oʻqishda qabul qilindi.

Adliya vazirining axboroti eshitiladi

Majlisda Adliya vaziri A. Toshqulovning “Fuqarolarning va tadbirkorlik subyektlarining

intellektual mulk sohasidagi huquqlarini himoya qilish borasida amalga oshirilayotgan ishlar toʻgʻrisida”gi axborotini eshitish haqidagi masala koʻrib chiqildi.

Maʼlumki, intellektual mulk (intellektual mulk obyektlariga boʻlgan huquqlarni muhofaza va himoya qilish) sohasida yagona davlat siyosatini amalga oshirish hamda Butunjahon intellektual mulk tashkiloti va intellektual mulk sohasidagi boshqa xalqaro tuzilmalarda Oʻzbekiston Respublikasining manfaatini ifodalovchi vakolatli davlat organi Adliya vazirligidir.

Soʻnggi yillarda vazirlik tomonidan fuqarolar hamda tadbirkorlar uchun qulaylik yaratish maqsadida intellektual mulk obyektlarini roʻyxatdan oʻtkazish va ular boʻyicha davlat xizmatlarini koʻrsatish jarayonlarini bosqichma-bosqich soddalashtirish, elektron hujjatlar, QR-kod orqali tasdiqlash mexanizmlari va idoralararo axborot almashinuvi tizimlarini joriy etish borasida muayyan ishlar amalga oshirildi. Sohani rivojlantirishning huquqiy va institutsional asoslari mustahkamlanmoqda.

Shu bilan birga, intellektual mulkni huquqiy himoya qilish, sohani raqamlashtirish, davlat organlari va tashkilotlarining ushbu yoʻnalishdagi oʻzaro hamkorlikdagi faoliyatini zamon talablariga moslashtirish, intellektual mulk obyektlari koʻllangan mahsulotlar hajmini oshirish hamda ichki va tashqi bozorlarda oʻz nomi (brend)ga ega boʻlgan raqobatbardosh mahsulotlarni turlarini kengaytirish borasidagi ishlarni yanada takomillashtirish zarurati ham mavjud.

Majlisda shundan kelib chiqib, mazkur masala yuzasidan Adliya vazirining axborotini eshitish haqida tegishli qaror qabul qilindi.

Yoshlar bandligi masalasi – parlament nazoratida

Deputatlar Yoshlar ishlari agentligi direktori A. Saʼdulloyevga “Yoshlar tomonidan sodir etiladigan jinoyatlarning oldini olish, bunday jinoyatlar sodir etilishiga olib kelgan ijtimoiy muammolarni hal etish borasida amalga oshirilgan ishlar toʻgʻrisida”gi parlament soʻrovini yuborish haqidagi masalani ham koʻrib chiqdi.

Keyingi yillarda mamlakatimizda yoshlarga oid davlat siyosatini izchil amalga oshirish, ularni qoʻllab-quvvatlash, taʼlim olishi, kasb-hunar egallashi va tadbirkorlik bilan shugʻullanishi uchun keng imkoniyatlar yaratilmoqda. Xususan, ish bilan band boʻlmagan yoshlarni kasb-hunarga, tadbirkorlik koʻnikmalariga va xorijiy tashkilotlarga oʻqitish orqali ularning bandligini taʼminlash ishlari ham tizimli amalga oshirilmoqda. “Besh tashabbus olimpiadasi” doirasida kitobxonlik, madaniyat va sanʼat, intellektual oʻyinlar, axborot texnologiyalari hamda sport turlari boʻyicha musobaqalar oʻtkazib kelinmoqda.

Aziza AMINOVA, Korruptsiyaga qarshi kurashish va sud-huquq masalalari qoʻmitasi aʼzosi:

– Qayd etish joiziki, hududlarda oʻtkazgan

oʻrganishlar va yoshlar bilan uchrashuvlarimiz yakunlari boʻyicha mazkur vazifalarni amalga oshirishda ayrim muammo va kamchiliklar saqlanib qolayotgani aniqlangan. Jumladan, baʼzi mahallalarda yoshlarni sport, madaniyat, sanʼat, kitobxonlik va axborot texnologiyalari toʻgʻraklariga jalb qilish ishlari yetarlicha tashkil etilmagan. Ihsiz yoshlarni kasb-hunarga oʻqitish, tadbirkorlikka yoʻnaltirish va doimiy bandligini taʼminlash boʻyicha yaratilgan imkoniyatlar joylarda barcha yoshlarga toʻliq yetkazilmagan. Bu boradagi ishlarni faollashtirish bugungi kunda juda muhim.

Majlisda shundan kelib chiqib, yoshlar oʻrtasida jinoyatchilikning oldini olish, ular bilan manzilli ishlash, boʻsh vaqtini mazmunli tashkil qilish, sport, madaniyat, kitobxonlik va axborot texnologiyalari sohasiga jalb etish hamda bandligini taʼminlash boʻyicha amalga oshirilgan ishlar yuzasidan asoslantirilgan tushuntirishlar berish haqida Yoshlar ishlari agentligi direktoriga parlament soʻrovi yuborish boʻyicha qaror qabul qilindi.

Oliy Majlis Qonunchilik palatasi Matbuot xizmati.

OʻZBEKISTON RESPUBLIKASI KONSTITUTSIYAVIY SUDIDA

Shu yil 12-iyun kuni Oʻzbekiston Respublikasi Konstitutsiyaviy sudi Inson huquqlari boʻyicha Milliy markazning “Advokatura toʻgʻrisida”gi Qonunning 3-moddasi uchinchi qismining beshinchi xatboshisi Oʻzbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 29, 65 va 141-moddalariga muvofiqligini aniqlash toʻgʻrisidagi murojaatini koʻrib chiqdi.

Milliy markazning fikricha, “Advokatura toʻgʻrisida”gi Qonun 3-moddasi uchinchi qismining beshinchi xatboshisida advokat shartnomaviy-huquqiy asosda davlat organlari, xoʻjalik boshqaruvi organlari, davlat muassasalari va tashkilotlarining yuridik xizmati xodimi sifatida faoliyat yuritishi mumkinligi belgilangan boʻlsa-da, unda advokatning tadbirkorlik subyektlari va nodavlat notijorat tashkilotlarida xuddi shunday asosda faoliyat yuritishi nazarda tutilmagan. Bu esa tadbirkorlik subyektlari va nodavlat notijorat tashkilotlarining Konstitutsiyada belgilangan malakali yuridik yordam olish huquqlarini cheklaydi. Shu sababli murojaatda mazkur normaning Oʻzbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 29, 65 va 141-moddalariga muvofiqligini aniqlash soʻralgan.

“Advokatura toʻgʻrisida”gi Qonunning 3-moddasiga muvofiq, advokat: ilmiy va pedagogik faoliyat; Oʻzbekiston Respublikasi Advokatlar palatasidagi va uning hududiy boshqarmalaridagi faoliyat; patent vakili va mediator sifatidagi faoliyat; shartnomaviy-huquqiy asosda davlat organlarining, xoʻjalik boshqaruvi organlarining, davlat muassasalari va tashkilotlarining yuridik xizmati xodimi sifatidagi faoliyat; hakamlik sudlarida va xalqaro tijorat arbitrajlarida sudya sifatidagi faoliyat; sud boshqaruvchisi sifatidagi faoliyatdan tashqari haq toʻlanadigan boshqa turdagi faoliyat bilan shugʻullanishga haqli emas.

Oʻzbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi 16-moddasining ikkinchi qismiga koʻra, Oʻzbekiston Respublikasining qonunlari va boshqa normativ-huquqiy hujjatlari Konstitutsiyasi asosida va uni iro etish yuzasidan qabul qilinadi. Birota qonun yoki boshqa normativ-huquqiy hujjat Konstitutsiyaning prinsiplari va normalariga zid boʻlishi mumkin emas.

Shuningdek, Konstitutsiyada har kimning malakali yuridik yordam olish huquqi kafolatlanishi, Oʻzbekiston Respublikasida barcha mulk shakllarining teng huquqliligi va ularning huquqiy jihatdan himoya qilinishi taʼminlanishi belgilangan.

“Advokatura toʻgʻrisida”gi Qonunning 1-moddasiga koʻra, advokatura – huquqiy institut boʻlib, u advokatlik faoliyati bilan shugʻullanuvchi shaxslar hamda xususiy advokatlik amaliyoti bilan shugʻullanuvchi ayrim shaxslarning mustaqil, koʻngilli, kasbiy birlashmalarini oʻz ichiga oladi. Advokatura Konstitutsiyaga muvofiq Oʻzbekiston Respublikasi fuqarolariga, chet el fuqarolariga, fuqaroligi boʻlmagan shaxslarga, korxona, muassasa va tashkilotlarga yuridik yordam koʻrsatadi.

Qonunning 91-moddasiga muvofiq, advokatlik faoliyati advokat va ishonch bildiruvchi shaxs oʻrtasida tuziladigan yuridik yordam koʻrsatish toʻgʻrisidagi bitim (shartnoma) asosida amalga oshiriladi.

Binobarin, advokatning shartnomaviy-huquqiy asosda davlat organlari, xoʻjalik boshqaruvi organlari, davlat muassasalari va tashkilotlarining yuridik xizmati xodimi sifatida faoliyat yuritishi uning boshqa tadbirkorlik subyektlariga, jismoniy va yuridik shaxslarga, nodavlat notijorat tashkilotlariga shartnoma asosida advokatlik xizmati koʻrsatishini cheklamaydi.

Shuningdek, “Advokatura toʻgʻrisida”gi Qonun 3-moddasi uchinchi qismining beshinchi xatboshisi matni mazmunidan fuqarolik-huquqiy tushdagi shartnoma asosida faoliyat yurituvchi advokat mazkur tashkilotning shtatdagi xodimi yoki davlat fuqarolik xizmatchisi hisoblanmasligi anglashiladi. Shu maʼnoda, qonunning Konstitutsiyaga muvofiqligi koʻrib chiqilayotgan bandi advokatning boshqa mulk shakliga asoslangan tuzilmalar bilan fuqarolik-huquqiy shartnomalar tuzishiga monelik qilmaydi.

Bundan koʻrinadiki, “Advokatura toʻgʻrisida”gi Qonun 3-moddasi uchinchi qismining beshinchi xatboshisiga asosan advokatning shartnomaviy-huquqiy asosda davlat organlari, xoʻjalik boshqaruvi organlari, davlat muassasalari va tashkilotlarining yuridik xizmati xodimi sifatidagi faoliyati Konstitutsiyaning har kimga malakali yuridik yordam olish huquqi kafolatlanishi hamda barcha mulk shakllarining teng huquqliligi va huquqiy jihatdan himoya qilinishi toʻgʻrisidagi normalarga toʻliq mos keladi.

Koʻrib chiqilayotgan masala boʻyicha sud majlisida ishtirok etgan manfaatdor tashkilotlar vakillari ham “Advokatura toʻgʻrisida”gi Qonun 3-moddasi uchinchi qismining beshinchi xatboshisi Oʻzbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 29, 65 va 141-moddalariga nomuvofiq emas degan mazmunda tushuntirishlar berdi.

Milliy markaz oʻz murojaatida “Advokatura toʻgʻrisida”gi Qonun 7-moddasining oltinchi qismida belgilangan advokatning davlat xizmatida turishi mumkin emasligi haqidagi vajni keltirgan. Vaholanki, qonunning ushbu normasi advokatga davlat tashkilotlarining shtat birliklarida belgilangan lavozimlarda faoliyat yuritishni taqiqlaydi.

Taʼkidlash joiziki, “davlat xizmati” deganda faqat davlat fuqarolik xizmatini tushunmaslik kerak. Chunki “Davlat fuqarolik xizmati toʻgʻrisida”gi Qonunning 4-moddasiga asosan davlat fuqarolik xizmati – davlat xizmatining bir turi boʻlib, Oʻzbekiston Respublikasi fuqarolarining davlat fuqarolik xizmati lavozimlarida davlat organlari vakolatlari amalga oshirilishini taʼminlashga doir haq toʻlanadigan kasbiy faoliyati hisoblanadi. Keng maʼnoda davlat xizmati deganda davlat tashkiloti maqomidagi barcha yuridik shaxslardagi, shu jumladan, davlat muassasalaridagi faoliyat tushuniladi. “Advokatura toʻgʻrisida”gi Qonun 7-moddasining oltinchi qismida advokatning aynan shunday tashkilotlar shtat javdaliida faoliyat yuritishi taqiqlangan.

Yuqoridagilardan xulosa qilib aytish mumkinki, “Advokatura toʻgʻrisida”gi Qonun 3-moddasi uchinchi qismi beshinchi xatboshisida belgilangan advokatning shartnomaviy-huquqiy asosda davlat organlari, xoʻjalik boshqaruvi organlari, davlat muassasalari va tashkilotlarining yuridik xizmati xodimi sifatidagi faoliyati advokatning davlat xizmatida turishi sifatida talqin etilimasligi lozim.

“Advokatura toʻgʻrisida”gi Qonunning 7-moddasi oltinchi qismidagi taqiy ushbu qonunning 3-moddasi uchinchi qismi beshinchi xatboshisidagi normaga taalluqli emas. Chunki advokat davlat organlari, xoʻjalik boshqaruvi organlari, davlat muassasalari va tashkilotlarining yuridik xizmatiga shartnomaviy-huquqiy (fuqarolik-huquqiy) asosda jalb etiladi. Bunda ish beruvchi va advokat oʻrtasida mehnat munosabatlari yuzaga kelmaydi.

Konstitutsiyaviy sud koʻrsatib oʻtilgan holatlarni inobatga olib, “Advokatura toʻgʻrisida”gi Qonun 3-moddasi uchinchi qismining beshinchi xatboshisi Oʻzbekiston Respublikasi Konstitutsiyasiga muvofiq degan xulosaga keldi.

Oʻzbekiston Respublikasi Konstitutsiyaviy sudi.

Baliq ovi saygohlarni kutmoqda

Inson salomatligi uchun foydali bo'lgan mashg'ulotlardan biri baliq ovi hisoblanadi. Chunki bu jarayonda fikr jamlanib, asab tinchlanadi va maroqli hordiq chiqarish mumkin. Baliq go'shti esa organizm uchun zarur bo'lgan yuqori sifatli oqsil, "Omega-3" yog' kislotalari va "D" vitaminiga o'ta boy parhezboop mahsulot ekanini ko'pchilik yaxshi biladi.



Qashqadaryo viloyati hokimligi huzuridagi Turizm infratuzilmasini rivojlantirish va boshqarish departamenti tomonidan Shahrisabz tumanining Miraki qishlog'i hududida amalga oshirilayotgan yangi loyiha sayyohlarga shunday imkoniyat yaratadi.

– Baliqchilik majmuasini 3,5 gektar maydonda tashkil etdik, – deydi departament direktori Sarvar Qayumov. – Bu maskanda sayyohlar baliq ovlashi, shu bilan birga, o'zlari tutgan baliqdan taom tayyorlab iste'mol qilishi mumkin bo'ladi.

Ayni paytda loyiha doirasida 20 ta hovuzda gulmohi (forel) baliq'ini parvarishlash yo'lga qo'yildi. Natijada yiliga qariyb 160 tonna baliq yetishtirilib, mahalliy bozorga chiqarilishi prognoz qilinmoqda. Bundan tashqari, majmuadagi uchta hovuzda tanga baliq'ini parvarishlanaypti.

Jahongir BOYMURODOV
("Xalq so'zi").

REKLAMA

«Aloqabank» ATB aksiyadorlari diqqatiga!

Aksiyadorlik tijorat "Aloqabank" Kuzatuv kengashining 2026-yil 3-iyundagi 21-bayoniga asosan, bank tomonidan **845 256 750 000** dona egasining nomi yozilgan oddiy aksiyalar chiqarildi. Mazkur chiqarilish 2026-yil 16-iyun kuni O'zbekiston Respublikasi Istiqlolli loyihalar milliy agentligi tomonidan P0021-32-son bilan ro'yxatga olindi. Aksiyalarni joylashtirish narxi bir donasi uchun **1 (bir) so'm** etib belgilangan.

Imtiyozli huquqdan foydalanish

O'zbekiston Respublikasining "Aksiyadorlik jamiyatlari va aksiyadorlarning huquqlarini himoya qilish to'g'risida"gi Qonuniga muvofiq, **2026-yil 3-iyun** holatiga bankning ovoz beruvchi oddiy aksiyalariga ega bo'lgan aksiyadorlar ushbu qo'shimcha chiqarilgan aksiyalarni o'zlariga tegishli aksiyalar miqdoriga mutanosib ravishda, belgilangan narxda imtiyozli sotib olish huquqiga ega.

Aksiyalar sonini aniqlash tartibi

Aksiyadorlar sotib olishga haqli bo'lgan aksiyalar soni quyidagi formulaasosida hisoblanadi:

$$B = \frac{A \times 845\,256\,750\,000}{2\,829\,193\,296\,965}$$

Bunda:

● **A** – aksiyadorning bank ustav kapitalidagi mavjud oddiy aksiyalari soni;

● **B** – aksiyador tomonidan imtiyozli huquq asosida sotib olinadigan yangi oddiy aksiyalar soni.

Eslatma: hisoblash natijasida verguldan keyingi qoldiq son 5 va undan yuqori bo'lsa — katta tomonga (butun songacha), 5 dan kam bo'lsa — kichik tomonga qarab yaxlitlanadi.

To'lov va hujjatlarni topshirish shartlari

To'lov shakli: O'zbekiston Respublikasi milliy valyutasida (so'mda), naqd pulsiz shaklda amalga oshiriladi.

Amal qilish muddati: imtiyozli huquq 2026-yil 17-iyundan 26-iyungacha (26-iyun kuni ham) amal qiladi.

Imtiyozli huquqqa ega bo'lgan aksiyadorlar o'z huquqlarini to'liq yoki qisman amalga oshirish uchun bankning bosh ofisiga yozma shakldagi ariza va to'lov hujjatini taqdim etishlari lozim. Arizada aksiyadorning ismi-sharif (nomi), yashash joyi (yuridik manzili) va sotib olinadigan aksiyalar soni aniq ko'rsatilishi shart.

Bank rekvizitlari va manzili

● **Manzil:** 100011, Toshkent shahri, Shayxontohur tumani, "Olmazor" MFY, O'qchi ko'chasi, 2-uy.

● **Tranzit hisob raqami:** 29803000700000401032.

● **Bank nomi:** "Aloqabank" aksiyadorlik tijorat banki.

● **Bank kodi:** 00401.

● **Bank STIRi:** 200829053.

● **Ma'lumot uchun telefon:** 71-232-83-67.

Ertaga O'zbekiston milliy terma jamoasi mundialdagi ilk o'yinini o'tkazadi

Ba'zan tarix bir lahzada yoziladi. Ammo o'sha lahzaning ortida yillar davomidagi intilishlar, umidlar, alamlar mag'lubiyatlar va qayta-qayta tiklangan ishonch mujassam bo'ladi. Bugun futbol bo'yicha O'zbekiston milliy terma jamoasi ana shunday tarixiy voqealik markazida turibdi.

ertasi kundanoq mashg'ulotlarga kirishgan. Jamoamiz Atlanta shahridagi "Atlanta United" bazasida mundial bahslariga qizg'in hozirlik ko'rdi. Mashg'ulot maydonlarida har bir harakat, har bir mashq katta maqsad – mamlakatimiz sharafiga jahon sahnasida munosib himoya qilishdek ulug'vor maqsad bilan uyg'unlashgan.

O'zbekiston milliy terma jamoasi jahon chempionatining birinchi turida Kolumbiya terma jamoasiga qarshi maydonga chiqishiga sanoqli soatlar qolmoqda. Hayajonli ushbu onlarda jahon mediamaydoni va ijtimoiy tarmoqlarni kuzatsangiz, qalbingiz faxr-iftixorga to'lishi aniq.

Dunyo ahli e'tiboridagi ushbu turnirda futbolchilarimiz tarixda ilk bor qatnashayotganiga qaramay soha mutaxassislari, millionlar o'yini ishqibozlari tomonidan katta xayrixohlik bilan kutib olinmoqda. Ularni nafaqat yurtimizdagi millionlab muxlislar, balki jahonning turli nuqtalarida yashayotgan barcha vatandoshlar ham qo'llab-quvvatlamogda. Shu bilan birga, Markaziy Osiyo futbol ishqibozlari O'zbekiston bayrog'ini baland ko'tarib, sportchilarimizni olg'a boshlayotir. Qardosh turkiy xalqlar ham Turkiya bilan birgalikda O'zbekiston futbolchilarini samimiy olqishlamogda. Mediamaydonda tobora keng tarqalayotgan bunday qaynoq

taftli munosabat va qo'llovlar "Oq bo'rilar"ga qo'shimcha kuch va ruh bag'ishlayotgani shubhasiz.

Jahon chempionati arafasida O'zbekiston milliy terma jamoasiga yo'llangan yana bir muhim tabrik esa FIFA prezidenti Janni Infantino tomonidan bildirildi. U o'zining ijtimoiy tarmoqdagi rasmiy sahifasida quyidagi fikrlarni yozib qoldirdi:

"O'zbekiston terma jamoasiga bu yozda Shimoliy Amerikada bo'lib o'tadigan FIFA jahon chempionatida omad tilayman!"

Jahon futbol sahnasidagi tarixiy debyutini o'tkazadigan milliy jamoaga eng ezgu tilaklarimni bildiraman. Muxlislarini faxrlantirish, tarixda yangi sahifa ochish va butun dunyoga o'z imkoniyatlarini namoyish etish yo'lida ularga muvaffaqiyat tilayman!"

Albatta, bunday e'tirof hamda qo'llab-quvvatlashlar har qanday jamoaga qanot bag'ishlaydi. Ammo haqiqiy sinov maydonda kechadi. Ayni paytda Amerika diyorida muntazam mashg'ulotlarni davom ettirayotgan futbolchilarimiz mundial muhiti, dastlabki bellashuvga tayyorgarlik va oldinda turgan muhim bahslar haqida qanday fikrda? Ularning kayfiyati qanday? Jahon chempionatining ilk ishtirokchilari



bu tarixiy pallani qanday his qilmoqda?

Ana shu kabi savollarga O'zbekiston Futbol assotsiatsiyasi mediiasi vakillarining bevosita ko'magi hamda hamkorligida futbolchilarimiz va terma jamoamiz murabbiyidan fikr-mulohazalar yozib olishga muvaffaq bo'ldik.

JAMOAGA TILAGIM BITTA: BU IMKONİYATNI QO‘LDAN BOY BERMANG!



Fabio KANNAVARO,
O'zbekiston milliy terma jamoasi bosh murabbiyi:

– Jahon chempionatida qatnashish har bir insonning orzusi. Nihoyat, biz Atlantadami. O'yinlarda ishtirok etishni va bu jarayondan zavq olishni sabrsizlik bilan kutaymiz. Odatda jahon chempionatiga tayyorgarlik ko'rish oson kechmaydi. Turli kichik muammolar uchrab turadi. Ammo biz imkon qadar eng yaxshi holatda bo'lishga harakat qildik. Dastlabki o'yinga ham bir qadam qoldi. Unga tayyor bo'lish uchun qo'limizdan

kelgan barcha ishni bajaryapmiz.

Maydonda bor kuchimizni beramiz va so'nggi soniyagacha kurashamiz. Chunki qayerda bo'lishidan qat'i nazar, barcha o'zbekistonliklar bizdan faxrlanishini istaymiz.

Menimcha, Kanada va Niderlandiyaga qarshi uchrashuvlarda ko'plab ijobiy jihatlarni namoyish eta oldik. Bunday darajadagi milliy jamoalarga qarshi o'ynash oson emas. Shunga qaramay jamoamiz o'yinida ko'plab yaxshi tomonlarni ko'rdim. Bizga aynan shunday o'yinlar kerak. Chunki kuchli raqiblarga qarshi maydonga tushganingizda doimo nimanidir o'rganasiz va tajriba to'playsiz.

Rostini aytсам, men himoyadagi xatolar bilan birga ijobiy jihatlarni ham ko'proq ko'rdim.

Portugaliya, Kolumbiya va Kongo Demokratik Respublikasining futbol jamoalari juda kuchli. Ularning ikkilasi dunyoning eng kuchli terma jamoalari qatoriga kiradi. Shuning uchun o'yinlar qiyin bo'lishini bilamiz.

Bu O'zbekiston tarixidagi ilk jahon chempionati. Mening jamoaga tilagim bitta: mana shu imkoniyatni boy bermang! Jahon chempionatida o'ynash baxti har doim ham nasib etavermaydi.

KUCH – BIRDAMLIKDA

Akmal MOZGOVOY,
O'zbekiston milliy terma jamoasi a'zosi:



– Jamoamizning kayfiyati a'lo. Hamma o'yin boshlanishini kutmoqda. Nafaqat muxlislarimiz, balki biz ham bu lahzani uzoq kutdik.

Tarixda ilk bor jahon chempionatiga chiqqanimiz juda katta va quvonchli voqea bo'ldi. AQSHdagi yig'inlarimiz ham ajoyib o'tmoqda. Kuchli terma jamoalarga qarshi o'rtoqlik uchrashuvlarida maydonga tushdik.

Yoshligimdan mashhur futbolchilarni kuzatib kelganman. Xudo xohlasa, endi o'zimiz ham maydonga tushyapmiz. Bu hayajonni so'z bilan ifodalab bo'lmaydi.

Murabbiy har bir futbolchidan yuz foiz yaxshi natija va yuz foiz fidoyilik kutmoqda. Bu – talab. Nasib etsa, yaxshi o'yin ko'rsatib muxlislarimizni xursand qilishga intilamiz.

Jamoamizning eng kuchli tomoni – birdamligimiz! Biz bir oilamiz. Maydonga chiqqanimizda murabbiy bergan ko'rsatmalarni yuqori darajada bajarishga harakat qilamiz.

O‘ZBEKISTON SHARAFI UCHUN MAYDONGA TUSHAMIZ

Eldor SHOMURODOV,
O'zbekiston milliy terma jamoasi sardori:

– Hayotimdagi eng katta orzularimdan biri ro'yobga chiqdi. Biz o'sha maqsadga erishdik. Faoliyatim davomidagi eng katta maqsadlarimdan biri milliy terma jamoa bilan jahon chempionatida ishtirok etish edi. Mana shu imkoniyatga ega bo'lganimizdan keyin butun futbolchilik faoliyatim, orzu va intilishlarim ko'z oldimdan o'tdi.

Barchamiz xursandmiz: nihoyat, uzoq kutgan vaqt keldi va mundialdagi ilk uchrashuvga tayyormiz. Hammasi ajoyib ketmoqda. Amerika iqlimiga ham

ko'nikib qoldik. Biz bu yerga ertaroq kelib, Nyu-Yorkda o'n kunlik mashg'ulotlar o'tkazdik. Hozir muhit ham, tayyorgarlik jarayoni ham har tomonlama ma'qul.

Birinchi navbatda, bu juda katta faxr. Nafaqat men uchun, balki butun jamoamiz, millatimiz uchun ham muhim voqealik. Jahon chempionatida faqat terma jamoa nomidan emas, balki butun O'zbekiston nomidan ishtirok etaymiz. Avval aytganimdek, bu biz uchun uzoq kutilgan orzu edi.

Muxlislarimizdan faqat bizni qo'llab-quvvatlashlarini so'raymiz.



Albatta, nasib qilsa o'z o'yinimiz bilan barcha yurtdoshlarimiz, futbolsevarlar ishonchini oqlashga harakat qilamiz.

ISHONCH – BIZ UCHUN ENG KATTA MOTIVATSIYA

Abbosbek FAYZULLAYEV,
O'zbekiston milliy terma jamoasi a'zosi:

– Murabbiyimiz o'zining boy tajribasini tinimsiz mashqlar davomida o'rnatib kelyapti. Eng muhimi, o'yinlarda safarbarlik bilan harakat qilishga undamoqda. Chunki mamlakatimiz tarixida ilk bor jahon chempionatida ishtirok etishning o'zi katta sharaf.

Bu har birimiz uchun baxt va katta mas'uliyat. Musobaqada qatnashish har bir futbolchining orzusi hisoblanadi.

Ma'lumot o'rinda qayd etish joizki, O'zbekiston milliy terma jamoasi jahon chempionatidagi tarixiy debyut uchrashuvini Janubiy Amerika futbol vakili – Kolumbiya terma jamoasiga qarshi o'tkazadi. Mazkur bahs 18-iyun kuni Meksika poytaxtidagi afsonaviy "Asteka" stadionida bo'lib o'tadi. Uchrashuv Toshkent vaqti bilan tonggi soat 07:00 da start oladi.

"JCH – 2026"ning "K" guruhi 1-turidan o'rin olgan O'zbekiston – Kolumbiya uchrashuvini angliyalik mashhur hakam Antoni Teylor boshchiligidagi hakamlar brigadasi boshqarib boradi.

Shubhasiz, bu nafaqat milliy terma jamoamiz, balki butun xalqimiz uchun ham tarixiy sinov va unutilmas lahza bo'ladi. Millionlab muxlislar nigohi qadaladigan afsonaviy "Asteka" stadionida futbolchilarimiz mamlakatimiz sharafiga munosib



himoya qilib, o'zbekistonliklarning orzu-umidlari va yuksak ishonchini xalqaro maydonda ham oqlaydi degan umiddamiz.

O'zbekiston jamoasiga omad yor bo'lsin!

Ulug'bek RO'ZIMATOV
("Xalq so'zi") tayyorladi.

Isroilning Xolon texnologiyalar instituti hamda Yangi O'zbekiston universiteti o'rtasida hamkorlik memorandumi imzolandi.

Xalq so'zi
Narodnoe slovo

MUASSISLAR:
O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi
Qonunchilik palatasi Kengashi
O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi
Senati Kengashi

Bosh muharrir O'tkir RAHMATOV

2020-yil 25-martda O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligida 0001-raqam bilan ro'yxatga olingan. Nashr indeksi – 429. Buyurtma G-542. 23 207 nusxada bosildi. Hajmi – 2 taboq. Ofset usulida bosilgan. Qog'oz bichimi A-2. Bahosi kelishilgan narxda.

Gazetamiz haqidagi ma'lumotlarni yuklab olish uchun QR-kodni telefoningiz orqali skaner qiling.



TELEFONLAR:
Devonxona 71-259-74-51; kotibxona 71-259-74-53;
e'lonlar 71-259-74-55.



Tahririyatga kelgan qo'lyozmalar taqzir qilinmaydi va mullifiga qaytarilmaydi.
Gazetaning yetkazib berilishi uchun obunani rasmiylashtirgan tashkilot javobgar.
Gazeta tahririyat kompyuter markazida terildi hamda operator A. Ismailov tomonidan sahifalandi.
Gazetaning poligrafik jihatdan sifati chop etilishiga "Sharq" nashriyot-matbaa aksiyadorlik kompaniyasi mas'ul.
Bosmaxona telefoni: 71-233-11-07.

MANZILIMIZ:
100066,
Toshkent shahri,
Islom Karimov ko'chasi, 55-uy.
Navbatchi muharrir N. Ostonov.
Musahhah S. Islomov.

"Sharq" nashriyot-matbaa aksiyadorlik kompaniyasi bosmaxonasi. Korxona manzili:
Buyuk Turon ko'chasi, 41. O'ZA yakuni – 02.20 Topshirildi – 02.20

1 2 3 4 5 6